

SHARQ XALQLARI TARIXIDA TA'LIM VA TARBIYAGA BO'LGAN MUNOSABATNING BA'ZI JIHATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15667626>

Mamanov Jamoliddin Abduraximovich

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b. dotsenti

j.mamanov@afu.uz

Annatsiya: Ushbu maqola o'zbek etnomadaniyati tarixida ta'lim va tarbiya masalasi davrlar kesimida hamda o'zgarib borish xususiyatlarini inobatga olgan holda tahlil etilgan. Shuningdek, maqola o'zbek jamiyatining qadimgi davrdan hozirgi kunga qadar ta'lim tizimining rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, etnomadaniyat, ta'lim tizimi, tarbiya, jamiyat rivojlanishi, qadimgi davr, islom dini, sobit ittifoq, musatqillik.

Abstract: This article analyzes the issue of education and upbringing in the history of Uzbek ethnoculture in terms of periods and taking into account the characteristics of change. The article also focuses on the laws of development of the educational system of Uzbek society from ancient times to the present day, its causes and consequences.

Keywords: Culture, ethnoculture, educational system, upbringing, development of society, ancient times, Islam, fixed union, independence.

KIRISH

O'zbekistonda etnopedagogika tarixini yaxlit, yagona madaniy, pedagogik tarixiy jarayon sifatida yoritish uchun shartli ravishda quyidagicha beshta davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Eng qadimgi davrlardan arablar istilosigacha (VII asrgacha) bo'lgan davr;
2. VIII asrdan XIX asr o'rtalarigacha - Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinguncha o'tgan davr;
3. XIX asming 60-yillaridan XX asr boshlarigacha o'tgan davr;
4. 1917-1920-yillardan (oktyabr inqilobidan) 1991-yilgacha o'tgan davr;
5. O'zbekiston respublikasining mustaqillikka erishgan hozirgi kunda pedagogik-tarixiy rivojlanish davri.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari ming yillar avval yashab, yuksak va o'ziga xos madaniyatni shakllantirish yo'lida ulkan va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh qurollaridan foydalangan holda tirikchilik qilishdan tortib, mehnat qurollarini yanada takomillashtirishgacha, urug'chilik va qabilachilik davrlariga kelib, xo'jalik hamda madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Ma'lumki, insoniyat jamiyati shakllanish jarayonida inson biologik jihatdan ham, shaxs sifatida ham rivojlanib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi, oddiy ixtirolarning rivojlanishi inson tafakkurining shakllanishiga turtki bo'lgan. Ushbu jarayon ming yillar davomida inson ongi taraqqiy etishining asosi bo'lgan axloq-odob qoidalarining tarkib topishiga olib kelgan. Eng qadimgi kishilarning oddiy istak va orzulari, axloqiy qarashlari qadimiy eposlarda, afsonaviy qahramonlar obrazlari orqali o'z ifodasini topgan. Ruhga sig'inish, ajdodlar ruhiga ehtirom, totemizm, sehrgarlik kabi diniy e'tiqod va marosimlar bilan bog'liq afsonalar qadimiy jamiyatning ma'naviy qiyofasini aks ettirgan.

Rivoyatlar va afsonalar massagetlar, saklar, xorazmiylar, so'g'dlar, parfiyaliklar yashagan davrlarga borib taqaladi. Tarbiya bilan bog'liq eng qadimgi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan bo'lsa-da, turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida shakllangan ma'naviy madaniyat yodgorliklarida bu boradagi ma'lumotlar aks etgan. Xususan:

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosim va urf-odatlarini,

Ijtimoiy-falsafiy, madaniy va adabiy-tarixiy voqealarni aks ettiruvchi "Avesto", Afsonaviy qahramonlar tasvirlangan dostonlar – "Alpomish", "Manas", "Shiroq", "To'maris", "Go'ro'g'li", "Murodxon", "Ravshan", Geografik asarlar, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Urxun-Enisey bitiklari va boshqa adabiy-tarixiy manbalar.

VII asrdan boshlab arablar Movarounnahr hududiga hujum uyushtira boshladilar. VIII asrning o'rtalariga kelib esa butun Movarounnahr ularning istilosi ostiga o'tib, bu yerda ham islom dini keng yoyildi. Arablar bosib olgan hududlarda islom ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya tizimi shakllana boshladi va yangi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Islom dini qabul qilingan joylarda masjidlar qurilib, ularning qoshida maktablar ochildi. Maktablarda arab tilini o'rganish majburiy etib belgilandi, ta'lim jarayoni arab tilida olib borilar va asosan, «Qur'oni Karim» o'qitilar edi.

Arab bo'lmagan bolalarga islom dini asoslarini o'rgatish maqsadida «Haftiyak», «Chor kitob» kabi darsliklar kiritildi. XII asrdan boshlab islomiy ilmlarni turkiy tilda yozilgan asarlar orqali keng targ'ib etish boshlandi. Bunga misol sifatida Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» asarini keltirish mumkin. Xalq kundalik hayotda asosan o'z ona tilida so'zlashgan bo'lsa-da, yozuv arab alifbosida olib borilgan. Savod chiqarish jarayoni harflarni va so'zlarni yozishni o'rganishdan boshlanar edi. Arab tilidagi "maktab" atamasi "yozuv o'rgatadigan joy" ma'nosini anglatgan.

Maktablarda bolalarga yozish va hisoblash o'rgatilgan bo'lib, shuningdek, o'smirlar savdo san'ati, arab tili, mantiq, notiqlik, husnixat va arifmetikadan saboq olganlar. Har bir maktabda o'quvchilar soni 30-40 nafardan oshmagan. Masjidlarga qarashli maktablarda asosan «Qur'on» o'qitilgan. Ta'lim jarayonida dastlab bolalarga harflarni tanitish va o'qish o'rgatilgan. Bu usulda har bir bola alifbo tartibida harflarning nomini o'zlashtirib olgan (alif, be, te, se va h.k.),

keyinchalik esa ushbu harflarni birlashtirib o'qishni mashq qilgan. Ushbu mashqlarni to'liq o'zlashtirgach, bolalarga «Qur'on» berilib, domla rahbarligida har bir sura takrorlash orqali o'rgatilgan.

X–XII asrlarda islom dini ruknlari tojik tilida she'r va nasr shaklida bayon qilinadi, ta'lim jarayonida «Chorkitob» o'qitila boshlagan edi. XII asrdan boshlab esa Ahmad Yassaviy, keyinchalik XVII asrda So'fi Olloyor tomonidan turkiy tilda yozilgan she'r va boshqa asarlar orqali islom dini ruknlarini o'rganish ommalashdi. Maktablarda faqat o'g'il bolalar ta'lim olgan bo'lsa, qizlar otinoyilar uyida tahsil olgan. Biroq ular faqat o'qish bilan shug'ullanib, yozuvni o'rganmaganlar.

X asrning boshlariga kelib madrasalar paydo bo'la boshladi. «Madrasa» so'zi «dars o'qitiladigan joy», «ma'ruza tinglaydigan joy» ma'nolarini anglatadi. Madrasalarda musulmon diniy ta'limoti, arab tili grammatikasi, ilohiyot, mantiq, notiqlik san'ati va kalom fanlari o'qitilgan. Vaqt o'tishi bilan bu ta'lim dargohlarida astronomiya, matematika, geografiya, kimyo kabi dunyoviy fanlar ham o'qitila boshlandi. Madrasalarda 15–20, 30–40 yoki 100–150 nafargacha talaba tahsil olgan. Ularni tamomlaganlar imom-xatib, qozixonalar va boshqa ma'muriy lavozimlarda faoliyat yuritgan.

Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ta'lim markazi vazifasini bajargan. Bu davrda ilohiyot bilan birga dunyoviy fanlar ham rivojlangan bo'lib, qonunchilik (fiqh), matematika (riyozat), geometriya (handasa), falakiyot, tibbiyot, tarix, adabiyot, she'riyat (ilmi aruz), arab tili va uning morfologiyasi o'qitilgan. Temuriylar davri, xususan, Amir Temur hukmronligi davri, qadimiy Turon o'lkasida ta'lim tizimi va ilm-fan sohasining eng yuksak rivojlangan bosqichi hisoblanadi. Amir Temur madrasalarda dars berish uchun islom dunyosining taniqli olim-u ulamolarini jalb qilgan. Uning farmoniga binoan Samarqandda o'z davrida yagona bo'lgan kutubxona barpo etilgan bo'lib, Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409–1449) davrida ushbu kutubxona yanada boyitilib, mamlakatning haqiqiy ilm-ma'rifat markaziga aylangan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida keltirilishicha, Amir Temur har qanday masalani hal qilishdan avval o'sha sohaning bilimdon mutaxassisleri va olimlari bilan maslahat qilgan. Ushbu davr maktablarida ta'lim jarayoni avvalo o'quvchilarga arab alifbosini o'rgatish bilan boshlanib, yozuv qoidalarini egallaganlaridan keyin «Haftiyak» (Qur'onning yettidan bir qismi) o'qitilgan. Ta'lim jarayonida diniy marosimlar va milliy urf-odatlar ham o'rgatilgan. Maktab o'quvchilari yoshi va bilim darajasiga qarab kichik, o'rta va yuqori guruhlariga bo'lingan.

➤ Dastlabki guruhlar 3 yillik o'quv davrida maxsus taxtacha orqali yozilgan harflarni o'rganish orqali, so'ngra «Haftiyak» o'qiganlar;

➤ O'rta guruhda 3 yil davomida harflarning yozilish tizimi, arab raqamlari orqali matematik tushunchalar o'rgatilgan. «Chor kitob», So'fi Olloyorning hikmatlari o'qitilgan;

➤ Shundan so'ng o'quvchilar keying bosqichga yani 3 yillik olgan bilimlari ichida diniy va dunyoviy bilimlarni egallash bilan bir qatorda islom dini asoslarini tashviqot qilishda ham faol bo'lganlar.

Mirzo Ulug'bek ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga katta e'tibor qaratib, atrofida o'z zamonasining yetuk olimlari, astronomlar va matematiklarni jamlagan hamda ularga homiylik qilgan. Uning saroyi madaniyat va ilm-ma'rifatning haqiqiy markaziga aylangan. Ulug'bek davrida tarixchi Lutfulla Hofizi Abro' "Zubdat ut-tavoxir" nomli asarini yaratgan, Ali ibn Muhammad Jurjoniy "At-tarifati Jurjoniy" nomli falsafiy risolani yozgan, shuningdek, mashhur tibbiyot olimi Movlono Nafis va boshqa ko'plab mutafakkirlar shu davrda yashab ijod qilgan.

Tadqiqotchi M. Alihojiyevning izlanishlariga ko'ra, Qo'qon xonligi hukmronligi davrida mamlakat bo'ylab 400 ga yaqin madrasalar faoliyat yuritgan. Yirik shaharlardan Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Xo'jand, O'ratepada 20 dan 50 tagacha madrasa mavjud bo'lgan, Namangan, O'sh, Chust, Shahrixon, Asaka, To'raqo'rg'on kabi kichik shaharlarda esa ularning soni 3–10 tagacha yetgan. Qishloqlarda madrasalar, odatda, aholisi zich joylashgan markazlarda 1–2 tadan tashkil etilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim beruvchi oddiy maktablar deyarli barcha masjidlar qoshida faoliyat yuritgan.

Qo'qon xonligi maktab va madrasalari bo'yicha tadqiqot olib borgan I. Alimov 1887-yilda Farg'ona viloyati boshqarmasiga taqdim etilgan vaqf hujjatlariga asoslanib, madrasalar soni bo'yicha hududlarning reytingini keltiradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, madrasalar soni jihatidan Namangan viloyati 66 ta madrasasi bilan birinchi o'rinda, Qo'qon mulki 58 ta madrasasi bilan ikkinchi, Marg'ilon viloyati esa 49 ta madrasasi bilan uchinchi o'rinni egallagan. Shuningdek, Andijon viloyatida 39 ta, Toshkent viloyatida 29 ta, O'sh viloyatida esa 13 ta madrasa bo'lgan. Garchi Toshkent viloyatida madrasalar soni nisbatan kam bo'lsa-da, ularning aksariyati yirik va mashhur madrasalar hisoblangan.

Ushbu tadqiqot o'rganilgan mavzuning keng yoritilgani, arxiv hujjatlaridan samarali foydalanilgani hamda boshqa muhim ma'lumotlarning taqdim etilgani bilan ajralib turadi. Xonliklar davrida barpo etilgan madrasalarning mashhurligi u yerda tahsil olgan talabalar soni va ta'lim bergan mudarrislarning salohiyati bilan belgilanar edi. Madrasalarda mudarrislarning obro'si yuqori bo'lib, turli masalalar ichki kengashlar orqali muhokama qilinib, hal qilingan.

Xonliklar davri ta'lim tizimi oilalarda boshlanib, keyinchalik maktab va madrasalarda davom etgan. Ota – onalar odatda ta'lim berish 6 - 7 yoshdan boshlanib, o'g'il bolalar masjidlarda, qiz bolalar esa uyda otinoyilarning qo'lida ta'lim-tarbiya olishgan.

Xonliklarda ta'lim tizimi ikki: quyi (maktab) va oliy (madrasa) bosqichda olib borilgan. O'z navbatida maktablar ham ikki turga bo'lingan: birinchisi, quyi maktab bo'lib, masjidlarda faoliyat yuritgan. Ikkinchisi yuqori maktablar, faqat shaharlarda, katta qishloqlarda faoliyat yuritgan. Aksariyat tadqiqotchilar maktablarning faoliyat xarakteriga ko'ra jamoat, xususiy, shahar va qishloq

maktablariga bo'lganlar. Madrasalarda ta'lim uch bosqichda tashkil etilib, adno (quyi), avsat (o'rta) va a'lo (yuqori) bosqichlarida olib borilgan. Ushbu bosqichlarda o'qish muddati qat'iy belgilanmagan. O'qish muddati ko'proq talabaning qobiliyatiga bog'liq bo'lgan. Bitiruvchilar qozilik va devonxona lavozimlariga da'vogar bo'lsa, imtihon qilinib, so'ng nomzodlik guvohnomasi berilgan.

Ma'lumki, madaniyat bir butun tizim sifatida ikki shaklda tushuniladi: moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat. Madaniyatning bu ikki shaklga bo'linishi ikkita muhim ishlab chiqarish – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning mavjudligiga mos keladi. Moddiy madaniyat inson moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Bunga mehnat qurollari, yashash va kundalik uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, transport vositalari va boshqalar kiradi [1, 368].

Ma'naviy madaniyat deganda ma'naviy ishlab chiqarish sohasi va uning natijalari va mahsullari tushuniladi. U ongning barcha sohalarini – fan, ta'lim, huquq, falsafa, san'at, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, din va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u kishilarning bir-biriga munosabatini, ularning o'ziga va tabiatga bo'lgan munosabatini o'z ichiga oladi, bu moddiy va ma'naviy faoliyat jarayonida mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, madaniy faoliyatning ikki turi mavjud – ijodiy va reproduktiv: birinchisi yangi madaniy qadriyatlarni yaratadi, ikkinchisi esa ularni qayta yaratish orqali ularning aylanishini oshiradi. Ma'naviyatni talqin qilish, izohlash, o'rganishda shaxs ma'naviyati bilan ijtimoiy guruh, xalq, millat ma'naviyatini ham alohida, ham o'zaro aloqadorlikda olib qarash talab qilinadi.

Ma'naviy madaniyat – bu inson va jamiyat ma'naviy hayotining turli qirralarini qamrab oladigan inson faoliyati sohasi, shuningdek ma'lum bir madaniy-tarixiy birlikka yoki umuman insoniyatga xos bo'lgan bilim va dunyoqarash g'oyalari tizimini anglatadi. Ma'naviy madaniyat ijtimoiy ong shakllarini va ularning inson faoliyatining adabiy, axloqiy va boshqa qadriyatlarini o'z ichiga oladi [2, 300]. Ma'naviy madaniyat inson o'zini faqat hissiy-tashqi tajriba bilan cheklab qo'ymasligi va unga ustuvor ahamiyat bermasligi, balki u yashaydigan, sevadigan, ishonadigan va hamma narsani baholaydigan asosiy va yo'naltiruvchi ma'naviy-ruhiy tajribani tan olishi tufayli paydo bo'ladi. Ushbu ichki ma'naviy-ruhiy tajriba bilan inson tashqi, hissiy tajribaning mazmuni va eng yuqori maqsadini belgilaydi.

«Ma'naviy madaniyat» tushunchasi nemis faylasufi, tilshunos va davlat arbobi Vilgelm fon Gumboldtning tarixiy va falsafiy g'oyalariga asoslanadi. U tomonidan ishlab chiqilgan tarixiy bilimlar nazariyasiga ko'ra, jahon tarixi – bu bilim chegaralaridan tashqarida bo'lgan, ayrim shaxslarning ijodiy qobiliyatlari va shaxsiy sa'y-harakatlari orqali namoyon bo'ladigan ma'naviy kuch faoliyatining natijasidir. Ushbu qo'shma ijodning samaralari insoniyatning ma'naviy madaniyati asosini tashkil etadi [3, 504]. Shuningdek, avstriyalik faylasuf Frankl Viktor

ma'naviy madaniyatni insonni ajratib turadigan, faqatgina uning o'ziga xos jihati, deb ta'riflaydi [4, 35].

Ma'naviyat – insonni inson, jamiyatni jamiyat sifatida barqaror saqlab turuvchi, odamning jami bilimlari, aql-zakovat va tuyg'ulari, axloqi va fe'l-atvori, tafakkur va qarashlari yig'indisi [5, 15].

Mustaqillik yillarining boshlarida ma'naviy madaniyat tushunchasi o'rniga ma'naviyat tushunchasi yo'llanila boshlandi. Albatta bu tushuncha insonlarning ongida yuksak axloq va insoniy fazilatlarini shakllantirishb jamiyat uchun kerakli bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash maqsadida, mafkuraviy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun qo'llanilgan bo'lsa, bu jihatdan ma'naviyat jamiyat hayotida avvalgi inkor etilgan kommunistik mafkura o'rnini ko'ldirishi xalq, fuqarolar ongida paydo bo'lgan bo'shliqni to'ldirishi lozim edi. Bu jihatdan ushbu tushuncha jamiyat hayotida, ta'lim tizimiga, ayniqsa yoshlar ongiga chuqur singdirildi. Lekin ushbu tushunchani mazmunini anglash nafaqat oddiy fuqarolar uchun balki ijtimoiy soha vakillari uchun ham qiyin vazifaga aylandi. Sababi ma'naviyat inson ichki dunyosi, ruhiyati bilan bog'liq tushuncha bo'lganligi, insonning ichki dunyosini tushuntirish oson ish emasligidan kelib chiqdi. Buning oqibatidan ma'naviyat tushunchasini tushunishga qiynalgan qatlam bu tushunchadan vos kechish kerakli haqida ham davo bilan chiqishdi. Ma'naviyat inson kamolotining eng yuqori bosqichini anglatgani sababli ham jamiyat hayotida faoliyat olib boruvchi fuqarolarning oliy darajasi etib belgilash va jamiyatning yuksak maqsadi sifatida targ'ib etish albatda muhim hisoblanadi. Lekin, ma'naviyat madaniyat tushunchasini ilmiy muomalada qo'llash, ma'naviyat tushunchasini izohlashda avvalgi qiyinchiliklarni yengillashtiradi deb hisoblaymiz.

Ma'naviy madaniyat rivojlanishi va taraqqiy etib borishida bir qancha omillar dialektik o'zaro ta'sirga ega. Quyida ushbu omillarning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim ma'naviy madaniyat sohasidagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu yerda O'zbekiston uchun dolzarb masala – yosh avlodni axloqiy tarbiyalash tizimini zudlik bilan isloh qilish dolzarbdur. Kelgusi yillarda ushbu tizimni qayta qurish kerak bo'ladi. Bejizga Prezident Sh.Mirziyoyev 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlamadi. Shu maqsadda nafaqat ko'plab o'rta va oliy ta'lim o'quv dasturlarining mazmunini ko'rib chiqish, balki ushbu sohalarni psixologiya va o'quv ishlari metodikasi sohasida tajribali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash zarur. Bu qiyin masala va uni hal qilish uchun ko'p vaqt va mablag' kerak bo'ladi. Biroq, ushbu muammoni hal qilishning strategik ahamiyati ushbu xarajatlarning to'g'riligini isbotlaydi, chunki ushbu muammoni hal qilmasdan, mamlakatimiz ta'lim tizimini qayta qurish va yanada rivojlantirishning ko'plab maqsadlariga erishib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimiz ta'lim tizimidagi mavjud muammolar, ayniqsa umumta'lim maktablaridagi o'qitish tizimining eskirganligi, maktablarda dars beruvchi o'qituvchilarning asosiy qismini ayol o'qituvchilar tashkil etishi ushbu muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bilamizki ayollar tarbiyada,

umuman yosh avlod bilan o'zaro munosabatlarda mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'lishi yoshlarning tarbiyasida salbiy holatlarni keltirib chiqaruvchi omilga aylanmoqda.

Ma'naviy madaniyatini rivojlantirishdagi ikkinchi muhim vosita bilim sohasidir. Fuqarolik jamiyati rivojlanishi jaraenida zamonaviy ilmiy bilimlar muntazam rivoj topib, o'z imkoniyatlari chegarasini tobora kengaytirib bormoqda. Jamiyatda yangi texnologiyalar, innovatsiyalar kashf etilmoqda, globallashuvga xos bo'lgan nazariya va bilimlar, yangi fanlar yuzaga kelmoqda [6, 11]. Bilimli yoshlar avvalo bo'sh vaqtdan unumli foydalanish imkonini qidiruvchi, vaqtini behuda narsalarga sarflamaslikka harakat qiluvchi jamiyat qatlami hisoblanadi. Yoshligidan yigit-qizlarni ilm olishga, ma'lum sohani egasi bo'lishga o'rgatish jamiyat uchun kerakli, ma'naviy salohiyati yuqori yoshlarni yetishtirib berish demakdir. Tarixiy xotiraga e'tibor qaratsak, Qodiriyning "O'tgan kunlar"dagi Otabek Yusufbek xojidek bir donishmand, iymon-e'tiqodi butun, xalqparvar insonning o'g'li. Yusufbek hojining barcha ma'naviy fazilatlarini o'g'liga o'tganligi shubhasiz. Ikkinchidan: Otabek madrasa ko'rgan yigit: o'z davri uchun yetarli darajada ilm olmagan bo'lganida Otabek o'z xalqi, Vatani, millatining jonkuyar bir farzandi darajasiga yetishi dargumon edi. Yoshlarning ezgu fazilatlarini egallashlari haqida mamlakat prezidenti Sh.Mirziyoyev "Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo'lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak" degan fikrlarni bildiradi. Albatta mamlakatni bilimli, ma'naviy madaniyati yuksak, axloqiy fazilatlar va zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan yoshlar yuksaklarga ko'taradi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqadi. Shu sababli ham bugungi yoshlarni bilimli qilib tarbiyalash eng muhim vazifadir. Bu yo'lda mamlakatimiz so'ngi yillarda bir nechta yangi va dadil qadamlarni tashlaganligi e'tiborga loyiq. Xususan, maktabgacha, umumiy va oliy ta'lim muassasalarini xususiylashtirish imkoniyatini poydo bo'lganligi. Yaqin yillarga qadar mamlakatimizda ta'limni xususiylashtirish masalasi haqida biz orzu ham qilmas edik. Xususiylashtirish avzallik tomoni mazkur muassasaning o'qituvchi yoki talabalarga berayotgan ta'lim sifatiga qarab keyingi taqdiri belgilanishi. Agar mazkur muassasada ta'lim sifati yaxshi va to'g'ri yo'lga qo'yilsa mazkur muassasaga kelib ta'lim oluvchilar soni ortishiga olib keladi. Lekin ta'lim sifati past bo'lib, tanish-bilish yoki korrupsion holatlar yuz beradigan bo'lsa o'z-o'zidan keyingi yillarda mazkur muassasaga bo'lgan talab pasayib ketishiga olib keladi. Yuqoridagi sabablar asosida xususiylashtirish ta'lim muassasasi rahbari albatta keyingi yillarni o'ylagan holda ta'lim sifatini oshirishga, kuchli bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni ta'lim jarayoniga olib kirishga harakat qiladi. Bu esa o'z-o'zidan ta'limda raqobatni keltirib chiqaradi. Bilamizki, raqobat bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur

raqobatning kuchayeshi bugungi kunda yoshlarning bilim saviyasini oshishiga va koʻplab yutuqlarni qoʻlga kiritishga olib kelmoqda.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Богатырев Д. К. Философия культуры. СПб. Издательство РХГА 2020. - 368 с.
2. Лиховцева А.В. Образ Мира. Основы духовной культуры М. AVRORA 2022. – 300 с.
3. Гумбольдт В. фон. Концепция общего языкознания: цели, содержание, структура. Избранные переводы. /Пер. с нем., вступ. ст. и примеч. Лобановой Л.П./. Серия: «История лингвофилософской мысли» М. ЛЕНАНД 2018. - 504 с.
4. Франкл В. Человек в поисках смысла (Перевод Д. Леонтьева). – Пермь: Биг-Пресс, 2012. Стр.35.
5. Мирзоб Бўрон. Нима бирламчи: иқтисодми ёки маънавият? Тафаккур журнали. 2021 йил 2-сон. 15-бет.
6. Сиддиқов И. Ёшлар интеллектуал маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т. 2020. 11-б.